



UDK: 378.091.3:37.013:172.15

Hilola QADAMBOYEVA,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: kadamboyevahilola@gmail.com

UrDPI dotsenti, PhD E.Nabiyev taqrizi asosida

TALABALARNING MILLIYLIK ASOSIDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda milliy qadriyatlar, urf - odatlar, til va tarix asosida Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish mexanizmlari o'rganiladi. Milliylik – shaxsning o'z xalqiga, madaniyatiga, an'alariga hurmat bilan qarashi orqali Vatanga bo'lgan sadoqatini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda talabalarda ijtimoiy - psixologik, pedagogik va ma'naviy tarbiya usullari orqali milliy o'zlikni anglash va Vatanga mehr-muhabbatni uyg'otish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida etnopedagogika asosida tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar beriladi. Ish natijalari talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik hislarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Vatan, etnopedagogika, "Vertikal model", milliy identifikatsiya, "Temurbek maktabi", "Kamalak" bolalar tashkiloti, milliy o'zlik, xalq og'zaki ijodi, aniq-alomatli bosqich, amaliy-birodarona bosqich, reflektiv bosqich.

MECHANISMS FOR FOSTERING STUDENTS' PATRIOTISM THROUGH NATIONAL IDENTITY

Annotation

This article explores the mechanisms for developing students' sense of love for the homeland based on national values, traditions, language, and history. National identity is interpreted as one of the key factors that strengthens loyalty to the homeland through an individual's respectful attitude toward their own people, culture, and traditions. The study develops mechanisms to awaken national self-awareness and patriotism in students through socio-psychological, pedagogical, and spiritual-ethical methods of education. Additionally, proposals are made to improve the effectiveness of educational activities in higher education institutions based on ethnopedagogical principles. The results of the research contribute to the development of civic responsibility and patriotic feelings among students.

Key words: Homeland, ethnopedagogy, "Vertical Model", national identification, "Temurbek School", "Kamalak" children's organization, national identity, folk oral creativity, stage of specific signs, practical-brotherly stage, reflective stage.

МЕХАНИЗМЫ ВОСПИТАНИЯ ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНУЮ ИДЕНТИЧНОСТЬ

Аннотация

В данной статье рассматриваются механизмы формирования у студентов чувства любви к Родине на основе национальных ценностей, обычаев, языка и истории. Национальная идентичность трактуется как один из ключевых факторов, укрепляющих преданность Родине через уважительное отношение личности к своему народу, культуре и традициям. В исследовании разрабатываются механизмы пробуждения национального самосознания и любви к Родине у студентов с использованием социально-психологических, педагогических и духовно-нравственных методов воспитания. Также даются предложения по повышению эффективности воспитательной работы в высших учебных заведениях на основе этнопедагогике. Результаты исследования способствуют формированию гражданской позиции и патриотических чувств у студентов.

Ключевые слова: Родина, этнопедагогика, «Вертикальная модель», национальная идентификация, «Школа Темурбеков», детская организация «Камалак», национальное самосознание, устное народное творчество, этап чётких признаков, практико-дружеский этап, рефлексивный этап.

Kirish. Vatanparvarlik – o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Vatanparvarlik - (yunon tilidan patris-vatan) – axloqiy - siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'u, uning mazmuni vatanga muhabbat, uning o'tmishi va buguni bilan faxrlanish, o'z manfaatlarini mamlakat manfaatlariga bo'ysundirishga tayyorlik, xalq manfaatlarini himoya qilishga intilishdir [2].

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy o'zlik va vatanparvarlik tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oliy ta'lim tizimida bu

borada pedagogik va amaliy tarkibni yangilash talab etildi. Xususan, vatanparvarlik tushunchasini oliy ta'lim muassalari talabalarida shakllantirish ham dolzarb muammo sifatida qarala boshladi. Vatanga muhabbat tushunchasining mohiyatini anglashda bir qancha yondashuvlarni misol tariqasida berib o'tishimiz mumkin:

a) "Vertikal model" ta'limi. Bu yondashuvda vatanparvarlikni shakllantirish doimiy, tizimli jarayon sifatida ko'riladi. Avvalo, tanqidiy tarixiy ong, so'ngra psixologik - axloqiy shakllantirish kabi bosqichlar mavjud.

b) tizimlashtirilgan pedagogik jarayon. Mazkur yondashuvni amalga oshirish uchun ta'lim mazmuni - darsliklar, aniq metodik materiallar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitiladi. Mazmun tarkibida milliy tarix, oltin meros, zamonaviy fikrlash, qarashlar muvofiqligi afzal ko'riladi.

Adabiyotlar sharhi. Sardorbek Tursunov olib brogan tadqiqotlarida talabalarda vatanparvarlikni shakllantirishda pedagogik - psixologik yondashuvlar batafsil o'rganilgan. Mazkur tarkibga identifikatsiya, iroda shakllantirish, milliy g'oya, tarix va davlat ramzlarini psixologik jihatdan onglarga singdirish kiradi. Bu jarayon shaxsiy motivatsiya, ma'naviy qadriyatlarni ichkilashtirish va identifikatsiya tizimi bilan ishlash orqali amalga oshiriladi.

Xamroyev Kamol Qahramonovichning tadqiqoti sharq allomalari, buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi orqali talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni yoritadi. Bu yondashuvda Amir Temur, Bobur, Navoiy kabi vatandosh buyuk shaxslarning asarlari va fazilatlar talabalarga namuna sifatida taklif etiladi.

Sodiqov Abduhalil ilmiy ishi "new Uzbekistan" kontekstida intellektual g'oya va fikrlash orqali yoshlar ongini vatanparvarlik ruhida shakllantirishga bag'ishlangan. Unda milliy identifikatsiya, madaniy meros va ongli fikrlash singari omillar integratsiyalash orqali patriotik ruhni rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Etnopedagogika - milliy an'analar va xalq tajribasini tizimli ravishda o'rganadi va ularni zamonaviy tarbiya shakllariga uyg'unlashtiradi. O'zbek xalq pedagogikasi orqali milliy qadriyatlar - hurmat, mehribonlik, fidoyilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Etnopedagogika yosh avlodda o'z xalqiga, millatiga, tiliga, diniy va madaniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiya berishga xizmat qiladi. O'z xalqining ildizlarini, tarixini, madaniyatini chuqur anglagan shaxs ona yurtga sadoqat bilan qaraydi. Milliy identifikatsiya - shaxsiy "men" ni vatan tushunchasi "biz" bilan uyg'unlashtiradi.

O'zbek xalq ertaklari, maqollari va dostonlari orqali yoshlar mardlik, sabr-toqat, sadoqat va yurtga muhabbat ruhida tarbiyalanadi. Etnopedagogika asosini xalq og'zaki ijodi - ertaklar, afsonalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, qo'shiqlar tashkil etadi. Ular orqali yoshlar mardlik va jasorat (Alpomish, Ravshan dostonlari), fidoyilik va bag'rikenglik, vatanni himoya qilishga tayyorlik kabi axloqiy meyorlarni o'rganadilar. Ertaklarda ko'p hollarda qahramonlar vatanini himoya qilgan, yurt sha'nini saqlagan holda tasvirlanadi. Bu obrazlar yoshlar ongida vatanparvarlik idealini shakllantiradi. Folklor va ertaklardan pedagogik vosita sifatida foydalanishda ayniqsa ertaklar orqali vatanparvarlik, sadoqat va hamjihatlikni singdirish mumkin. Bosh qahramonlarning jasorati orqali talabalarda emotsional va etnik identifikatsiya hosil bo'ladi. Tadqiqotlarda bu yondashuv samarali bo'lgani, talabalarda milliy g'ururni oshirganligi qayd etilgan. Etnopedagogika xalq urf-odatlarini tarbiya vositasi sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, Navro'z bayrami, Mustaqillik bayrami, hasharlar, do'stlik marosimlari kabi an'anaviy tadbirlarda vatan, mehnat va birlik g'oyalari aks etadi. Bu orqali talabalar madaniy meros bilan bog'lanadi va ijtimoiy birdamlik tuyg'usini his qiladi.

Etnopedagogik yondashuv orqali talabalar o'z ajdodlarining jasorati, madaniy merosi, tarixdagi roli

haqida bilimga ega bo'ladi. Bu bilimlar esa shaxsda faxr, g'urur va vatan uchun xizmat qilish motivatsiyasini kuchaytiradi. Sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi shaxslar hayoti orqali tarixiy iftixor va g'urur uyg'onadi.

Etnopedagogika nafaqat nazariy, balki hayotiy amaliyotga asoslangan. U oilada - ota-onaning ibrati, mahallada - katta-kichik hurmati, ta'limda - o'qituvchining namunasi orqali talabaga vatanparvarlikni bevosita ko'rsatadi va singdiradi.

Etnopedagogika - vatanparvarlik tarbiyasining ildizli, hissiy, qadriyatli va milliy asoslangan shaklidir. Uning afzalligi shundaki, u yoshlarda faqat bilim emas, balki hissiy bog'liqlik, ajdodlarga hurmat, madaniy merosni qadrlash, ona yurtini sevishtirish kabi yuksak insoniy fazilatlarini uyg'otadi.

Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllanishini ikkita: ichki va tashqi omillarga ajratishimiz mumkin. Ichki omillar qatorida subyektiv psixologik omillarni: milliy g'urur, vatanparvarlik bag'rikengligi, shaxsning ichki motivatsiyasini borishini, tashqi omillar qatorida esa o'qituvchilarning o'rni, pedagoglarning ruhiyati, tajribasi va dunyoqarashi orqali model bo'lib, talabaning mazmunini yetishini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Talabalarda vatanga muhabbat tuyg'usini rivojlantirish bir nechta bosqichlarda olib boriladi.

Aniq - alomatli bosqich - milliy ramzlar, tarixiy shaxslar haqida faktlarni bilish tizimini shakllantirish.

Amaliy - birodarona bosqich - ijtimoiy-madaniy tadbirlar, ekskursiyalar, bayram tadbirlari, tarixiy joylarga sayohat orqali shaxsiy tajriba o'ttirish, guruhli loyihalar va debatlar orqali talabalarning o'z fikrini shakllantirib, ko'nikmalarni rivojlantirish.

Reflektiv bosqich - talabalar ichki muhokama, hisobot, blog, jurnal orqali milliy fikr-motivlar ustida ishlaydi va o'z-o'zini baholaydi.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashuv davrida har bir millat, har bir xalq o'z tarixini, qadriyatlarini asrash va uni yangi avlod qalbiga singdirish orqali mustahkam fuqarolik jamiyatini shakllantirishga intilmoqda. Bu yo'lda ta'lim tizimi, xususan, maktab va kollej bosqichlarida olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari, metodik yondashuvlar alohida o'rin tutadi. Xususan, yoshlar qalbida vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini shakllantirishda tashriflar va tadbirlar, shuningdek, ilg'or ta'lim metodikalarining o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan tashkil etilgan "Temurbek maktabi" bugungi kunda yoshlarni nafaqat harbiy-ma'naviy jihatdan tarbiyalayotgan, balki ularni buyuk tarixiy shaxslar, davlat arboblari merosi bilan yaqindan tanishtirayotgan muhim o'quv muassasalaridan biridir. Bu maktabda o'quvchilar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur Mirzo kabi ulug' ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan chuqur tanishib, ularning yurtga sadoqat, jasorat va adolatparvarlik kabi fazilatlaridan ilhomlanadilar. Bu maktabning asosiy vazifasi sifatida o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish belgilangan[1]. Bunday tajriba yoshlar qalbida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otadi va ularni vatanparvar bo'lishga undaydi.

“Yoshlar – kelajagimiz” degan chuqur ma’noli g’oyaning amaliy ifodasi sifatida “Kamalak” bolalar tashkiloti orqali maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va vatanparvarlik ruhini uyg’otish yo’lga qo’yilgan. Tashkilot faoliyatida bayramlar, xalq o’yinlari, sahna ko’rinishlari, davlat ramzlari haqidagi mashg’ulotlar orqali bolalar mustaqil fikrlashga, o’z Vataniga mehr bilan qarashga o’rgatiladi. Bu esa ularning fuqarolik ongini erta yoshdanoq shakllantirishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik ruhini samarali shakllantirishda darslarda qo’llaniladigan metodik usullar katta ahamiyatga ega. Quyidagi yondashuvlar ta’lim jarayonini yanada mazmunli va samarali qilishga yordam beradi:

milliy voqealar, qadriyatlar va tarixiy merosni dars materiallariga kiritish. Bu orqali o’quvchilar o’z tarixini, madaniyatini anglaydi va hurmat bilan qaraydi. Masalan, “O’zbekiston tarixi” fanida SHO’rchi jangchilari, Turkiston muxtoriyati, jadidchilik harakati kabi mavzular asosida darslar tashkil etish mumkin.

faol ta’lim metodlari: rolli o’yinlar, debatlar, loyiha asosidagi ta’lim.

Talabalarni tarixiy shaxslar rovida chiqish qilishga jalb etish, guruhli munozaralarda Vatan himoyasi, davlat suvereniteti kabi masalalarni tahlil qilish orqali ularning mustaqil fikrlashi va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

tarixiy joylarga sayohatlar. Xiva, Buxoro, Samarqand (Registon majmuasi), Termiz, Toshkent va boshqa qadimiy shaharlarimizda tashkil etiladigan ekskursiyalar orqali talabalar tarixiy yodgorliklar bilan amalda tanishib, nazariy bilimlarini mustahkamlaydi. Bunday tashriflar vatanparvarlikni yurakdan his qilishga zamin yaratadi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, vatanparvarlik faqat shior yoki darslikdagi mavzu emas – bu har bir yoshning qalbida, harakati va niyatida aks etishi kerak bo’lgan ulug’ tuyg’udir. Yuqorida tilga olingan tashriflar, tadbirlar,

metodik yondashuvlar va ta’limiy tashabbuslar orqali biz yosh avlod qalbida bu muqaddas tuyg’uni uyg’otish, mustahkamlash, uni real hayotda namoyon etish uchun zamin yaratayapmiz. Zero, “Vatan – muqaddas, uni asrash – har bir fuqaroning burchidir!”

Har bir mamlakat a’zosi qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat’i nazar, vatanparvarlik tuyg’usini anglagan holda, o’zining ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni his qilishi, shaxsiy manfaatlarini shu Vatan, shu xalq manfaatlari bilan uyg’unlashtirib yashashi va mamlakatimizda o’sib kelayotgan yosh avlodni barkamol va komil inson qilib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo’ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

Oliy ta’lim muassasalarida vatanparvarlikni shakllantirish jarayonining samarali bo’lishi uchun bir nechta tavsiyalar berib o’tamiz.

Talabalarda vatanga muhabbat tuyg’usini shakllantirish jarayonida eng avvalo, oliy ta’lim muassasalarida tizimli yondashuv zarur. Bu jarayon ichki va tashqi omillar bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Ichki omillar misolida talabaning motivatsiyasi, shaxsiy o’sishi bilan belgilansa, tashqi omillar siyosiy-huquqiy bazasi, madaniy institutlar bilan belgilanadi.

Etnopedagogika – bu barcha sohalarida markaziy mexanizm sifatida qaraladi. Folklor, urf-odatlar hamda xalq pedagogikasi orqali talabalarda vatanparvarlikni chuqurlashtiradi.

Amaliy formatni kuchaytirish – davlat dasturlari, keng madaniy-masnavi tadbirlar, loyihaviy ishlar orqali sistema doimiy shakllantiriladi.

Pedagoglarni qayta tayyorlash – ularning milliylik va vatanparvarlikni pedagogik vosita sifatida faol ishlata olishga imkon yaratish.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev “O’smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi” PQ 28-iyun 2019-yil
2. Tursunov S.. “Xalq pedagogikasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish yo’llari” Ta’limda yangicha yondashuv –innovatsiya sari qo’yilgan qadam. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiyasi. Qo’qon. 2024
3. Uzakov Akrom Avazovich, Khurramov Mansur Musurmon o’gli “To develop a sense of patriotism and personal responsibility among students in higher education institutions”. Proceedings of Global Technovation 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Granada, Spain <https://conferencepublication.com> January 30th, 2021.
4. Salimov Maruf Eshdavlat “Characteristics of the Concept of Patriotism in Education of Ideal Youth” Eurasian Research Bulletin. 2022.
5. Sodiqov Abduhalil Abduqaxxor o’g’li “Formation of patriotic ideas among youth through the ideology of intellectuals in new uzbekistan” Advancing social justice: strategies for equity and inclusion. 2025
6. Xamroyev Kamol Qahramonovich “Talabalarda vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirishda sharq allomalarning ilmiy me’rosini o’rganishning ahamiyati” “Pedagog” jurnali 2024.